



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi
Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana:08-10-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 21346

Obyekt nomi «Namangan viloyati Mingbuloq tumani “Uyurchi Damko'l” MFYda 57-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida 75 o'rinli bino qurish»

Buyurtmachi - Namangan viloyat hokimligining Yagona buyurtmachi injiniring kompaniyasi

Bosh loyihachi - “NEW CITY PROJEKT” MChJ

Litsenziya AL-000412 17.12.2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan.

Moliyalashtirish manbai - Byudjet

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Yangi qurilish

Murojaat raqami: № 17993

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Namangan viloyati Hokimining 2021 yil 30 iyundagi 67-6-0-F/21-sonli qarori.
- 1.2. Mingbuloq tumani hokimining 2020 yil 18 dekabrda 723-sonli qarori.
- 1.3. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi va Namangan viloyati Maktabgacha ta'lim boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.4. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021 yil 22 fevraldagi 1714-1714204-12489-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.5. Muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar hamda manfaatdor, nazorat qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan kelishilgan hujjatlar.
- 1.6. “O'ZGASHKLITI” DUK Namangan filiali tomonidan 2021 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.
- 1.7. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun 2021 yildagi 12/l-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- MTT binosi. Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv va oqava suv ta'minoti, elektr yoritish, yong'in signalizatsiya, kuchsiz tok va texnologik qismlari.

- Yordamchi bino va inshootlar (yozgi ayvoni, qorovulxona, suzish havzasi, 2 o'rinli hojatxona, 50 m³ xajmli oqava suv o'ra, 50 m³ xajmli yong'inga qarshi suv xovuzi, oziq-ovqat saqlash ombori, issiqlik punkti, ko'mir saqlash ombori, kul uchun o'ra, tashqi qo'rg'on devor, kichik me'moriy inshootlar).

- Bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.

- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyihalananayotgan MTT Mingbuloq tumani "Uyurchi Damko'l" MFYda joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshlilik bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo xarorati - 14^os. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa va shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes (qatlam qalinligi 3,5 metrgacha), 2-qatlamida suglinok (qatlam qalinligi 3,9 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi - III. Cho'kuvchanligi bo'yicha cho'kmaydigan tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari yer satxidan 4,5 metrda aniqlangan. Yerni tuzilish reliefi - tekis.

3.2. Qurilish maydoni.

Ajratilgan yer maydoni Mingbuloq tumani "Uyurchi Damko'l" MFYda joylashgan bo'lib, umumiy maydoni - 2000 m². Yer maydoni Mingbuloq tumani hokimining 2020 yil 18 dekabrda 723-sonli qaroriga asosan ajratilgan.

3.3. Bosh rejasi.

Ajratilgan 2000 m² hududda joylashgan: loyihaviy 75 o'rinli MTT binosi, yozgi ayvon - 3 dona, 2 o'rinli hojatxona, qorovulxona, oziq-ovqat saqlash ombori, 50 m³ xajmli oqavasuv o'rasi, 50 m³ xajmli yong'inga qarshi suv xovuz, suzish havzasi, issiqlik punkti, ko'mir saqlash ombori, kul uchun o'ra, tashqi qo'rg'on devor, kichik me'moriy inshootlar. Yer maydonining chegaralari: shimol va g'arbdan - avtomobil yo'li bilan, janub va sharqdan - turar-joy hududi bilan. Hududga ikkita kirish ko'zda tutilgan. Hudud obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi.

3.4. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. MTT bino.

Loyihalananayotgan MTT bino - 1 va 2 qavatli bo'lib, yerto'lasiz. Bino pishiq g'ishtdan, bir-biriga yopishgan bloklardan iborat. "A-Ye" va "1-8" o'qlari bo'yicha 11,8mx28,4m (2 qavatli blok), "J-l" va "1*-6"" o'qlari bo'yicha 9,0mx17,5m (1 qavatli blok), xonalar balandligi - 3,0 m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor - yaxlit tasmasimon quyma temir-betondan, beton markasi V15, V7,5.

Devorlar - 75 markali pishiq g'ishtdan, II-toifa g'isht terish usulida.

Pardadevor - pishiq g'ishtdan, 120 mm qalinlikda.

Sarbastalar va o'zaklar - yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Ramalar - yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Ora va tomyopma - 1.141.1-28 seriyali yig'ma temir-beton plitalar.

Tom - yog'och stropila va reykali panjara-to'qima asosida profnastil qoplama.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Deraza va framugalar – plastik profil.

Vitrajlar – alyumin profil.

Eshiklar – MDF va alyumin profil.

Pol – yog‘och, keramik, mozaika, beton.

2. Yozgi ayvon (3 dona).

Loyihalananayotgan ayvon to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, “A-B” va “1-4” o‘qlari bo‘yicha 3,1mx8,0m tashkil etadi. Ayvon balandligi – 4,0 m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V12,5.

Ustunlar – Ø100 mm po‘lat quvurdan.

Tomyopma – metall fermalar.

Tom – metall obreshtka profnastil qoplama.

Pol – yog‘och.

3. Qorovulxona.

Bino – 1-qavatli, yerto‘lasiz, pishiq g‘ishtdan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, devor o‘qlari bo‘ylab 3,0mx3,0m o‘lchamdan iborat, xona balandligi – 2,8 m.

4. 2 o‘rinli hojatxona.

Bino – 1-qavatli, o‘rali, pishiq g‘ishtdan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, devor o‘qlari bo‘ylab 2,5mx3,0m o‘lchamdan iborat, xonalar balandligi – 2,4m.

5. 50 m³ xajmli yong‘ing qarshi suv xovuzi.

Loyihalananayotgan xovuz – yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V20), to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, devor o‘qlari bo‘ylab 3,4mx6,0m o‘lchamdan iborat, xovuzning chuqurligi – 3,0 metr.

6. 50 m³ xajmli oqava suv o‘ra.

Loyihalananayotgan o‘ra – yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V15), to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, devor o‘klari bo‘ylab 3,4mx6,0m o‘lchamdan iborat, o‘raning chuqurligi – 3,0 metr.

7. Suzish havzasi.

Loyihalananayotgan suzish havzasi – yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V15), to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, devor o‘qlari bo‘ylab 4,0mx7,0m o‘lchamdan iborat, havzasining chuqurligi – 0,6÷0,7 metr.

8. Tashqi qo‘rg‘on devor.

Loyihada umumiy uzunligi 76 metr va balandligi 2,0 metr bo‘lgan metalldan devor qurish xamda metall darvozalar urnatish ko‘zda tutilgan.

10. Ko‘mir saqlash ombori, oziq-ovqat saqlash ombori, issiqlik punkti, kul uchun o‘ra, kichik me‘moriy inshootlar.

Ob‘ektga avvaldan ishlab chiqilgan va individual loyihalar bog‘langan.

Ichki muhandislik tarmoklari.

Isitish va shamollatish.

Issiqlik ta'minoti manbai MTT hududida joylashgan loyihaviy *issiqlik punkti* hisoblanadi. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi 90-70°s parametrlarga ega bo'lgan suv bo'lib, isitish tizimi ikki quvurli gorizontal pastki ta'minotli etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta'minlangan bo'lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo'tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta'minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta'minoti.

Binoga xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tarmog'i loyihalangan. Xo'jalik-ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari turli xil diametrdagi polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta'minoti manbai elektrda ishlaydigan suv isitgichlari hisoblanadi. Ichki issiq suv ta'minoti tarmoqlari polipropilen quvurlari xizmat qiladi. Binoda xo'jalik-maishiy oqava suv tizimi mo'ljallangan, oqava suv tarmoqlari Ø50-110 mm polietilen quvurlar nazarda tutilgan.

Elektr qismi.

Elektr tarmog'i kuchlanishi 380/200V. Loyihada 220V kuchlanish ishchi va avariya yoritish ko'zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Binoni yoritish qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq qabul qilingan. Guruhli yoritish tarmog'i VVG-600 va kuvvatli tarmog'i AVVG-660 kabeldan loyihalangan. Loyihada ShRV va ShMP turdagi shitlarni o'rnatilishi hisobga olingan.

Ob'ekt ko'rsatkichlari:

Nomi	Qurilish maydoni (m ²)	Umumiy maydoni (m ²)	Qurilish xajmi (m ³)
MTT binosi	501,7	842,31	3505,8
Yozgi ayvon (3 dona)	88,2	88,2	264,6
Qorovulxona	11,6	6,9	42,24
2 o'rinli hojatxona	9,9	7,6	50,6
Issiqlik punkti	4,8	4,8	12,1
50 m ³ xajmli oqava suv o'ra	23,3	17,7	76,9
50 m ³ xajmli yong'inga qarshi suv xovuzi	23,3	17,7	76,9
Suzish havzasi	28,0	23,55	25,2
Oziq-ovqat saqlash ombori	18,36	12,0	73,44
Ko'mir saqlash ombori	23,56	18,46	124,3
Kul uchun o'ra	10,7	6,3	12,1
Jami	743,42	1045,52	4264,18

Yong'in xavfsizligi.

Loyihada binoning o'tga chidamlilik darajasi o'tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong'in guruhlariga javob berishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Yong'inni rivojlanishini oldini olish uchun yong'in signalizatsiyasi tizimi loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo'nalishida ochiladi. Chordoq tomining yog'och konstruksiyalari olovga bardoshlilik va antiseptiklar bilan ishlov beriladi. MTT hududida 50 m³ xajmli yong'inga qarshi suv xovuzi qurish ko'zda tutilgan.

Energiya tejamkorlik.

Energiya tejamkorligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Tom - 80 mm kalinlikda mineral (bazalt) plitalar sement-qum koplama bilan izolyatsiya qatlami;

Romlar – PVX dan ikki qavat oynali, yon tomonlari sement-qum suvoq va moyli bo'yoq bilan ikki marta buyalgan;

Devorlar – devorlarni tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi bazalt plitalar bilan izolyatsiya qatlami.

Pollar – 1-qavatda yog'och pollardan tashqari ko'pikli polietilendan izolyatsiya qatlami.

3.5. Qurilish davomiyligi.

Qurilish davomiyligi – 6 oy.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Suv ta'minoti* – “Toza ichimlik suv” UK Mingbuloq tumani filialining 9.08.2021 yildagi 18/39-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv tarmog'i qabul qilingan.

4.2. *Oqava suv* – chiqindi suvlar uchun 50 m³ xajmli oqava suv o'rasi qurish ko'zda tutilgan.

4.3. *Elektr ta'minoti* – “Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJning 29.03.2021 yildagi 35-18/0357-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 35/10 kVli “Mexnatobod”dan chiqqan 10 kVli “Gulbog” elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPs-100/10/0,4 kv, AIIISKUE tizimi o'rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko'zda tutilgan.

4.4. *Issiqlik ta'minoti* – issiqlik tarmoqlari issiqlik punktidan ulanishi belgilangan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja, fasad chizmasi Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi va Mingbuloq tumani qurilish bo'limi bilan kelishilgan.

- Mingbuloq tumani SEO va JS bo'limining 10.08.2021 yildagi 2-sonli xulosasi (248 shakl).

- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 6.08.2021 yildagi 01-19/03-789-sonli xulosasi.

- “O'zenergoinspeksiyasi” Namangan hududiy bo'limining 7.10.2021 yildagi 16/1143-sonli xulosasi.

- Xonalar joylashtirish rejasi Mingbuloq tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Loyiha topshirig'i – o'zgartirildi va buyurtmachi tomonidan – tasdiqlandi.

6.1.2. Qizil chiziq chizmasida yer maydoni miqdori – ko'rsatildi.

6.1.3. Mingbuloq tumani SEO va JS bo'limining 10.08.2021 yildagi 2-sonli xulosasi – taqdim etildi.

6.1.4. Bosh rejada bino va inshootlarning qurilish xajmi – ko'rsatildi.

6.1.5. Bosh rejada yozgi ayvonlar soni – o'zgartirildi.

6.1.6. Bolalar o'yingohi pol qoplamasi – ko'rsatildi.

MTT binosi.

6.1.7. Loyiha qurilish joyining muhandislik geologiyasi xulosasi asosida – bog'landi.

6.1.8. "A" blokda tashqi devor qalinligi – o'zgartirildi.

6.1.9. Poydevor hisobi – taqdim etildi.

6.1.10. Poydevor rejasida bog'lovchi poydevor o'lchamlari – o'zgartirildi.

6.1.11. Xonalarning rejalashtirish yuzasi va tarkibi IQN 03.19 talabi asosida – o'zgartirildi.

6.1.12. Pol tarkibida issiqlik izolyatsiyasi qatlami qalinligi – o'zgartirildi.

6.1.13. QMQ 2.01.03-96 talabiga binoan yuk ko'taruvchi rigellar tom yopma bilan birikishi uchun armatura chiqirlari – loyihalandi.

6.1.14. Tom qirqimida tom qoplamasi – o'zgartirildi.

6.1.15. Zinalar uchun temir panjara chizmasi IKN 03-19 talabi bo'yicha – ishlab chiqildi.

Yordamchi bino va inshootlar.

6.1.16. Tashqi qo'rg'on devor poydevorlari iqtisodiy tejamkor yechim bilan – ishlandi, spetsifikatsiyada devor uzunligi bosh rejaga asosan – o'zgartirildi.

6.1.17. 50 m³ xajmli oqava suv o'rasi devor rejasida (Nvk) bo'ylama chizmasiga asosan oqava suv uchun teshiklar – ko'rsatildi hamda loyihaviy va $\pm 0,000$ satxlar – berildi.

6.1.18. Qorovulxona poli uchun poydevordan shamollatish tuynuklari – ko'zda tutildi.

Muhandislik ta'minoti.

Ichimlik va oqava suv ta'minoti.

6.1.19. Binoning hojatxonalari pollarida pol satxida "trap" – ko'zda tutildi.

6.1.20. Devor rejasida va aksonometrik sxemada quvur diametri – ko'rsatildi.

6.1.21. Sanitar xonalar IKN 03-19 talabi bo'yicha – joylandi.

6.1.22. Ichki suv tarmog'i tarqatuvchi tarmoqlar gidravlik hisobi – taqdim etildi.

6.1.23. Oqava suv ishchi chizmasida talab etilgan joylarda quvur yotkizish chuqurligi satxlari – ko'rsatildi.

6.1.24. Tashqi yong'inga qarshi xovuz xajmi QMQ 2.04.02-97 talablari bo'yicha – hisoblandi.

6.1.25. Yong'inga qarshi xovuz va suzish xavzasini suv bilan to'ldirish yechimi – berildi.

6.1.26. Tashqi hojatxona binosi yaqiniga qo'l yuvish uchun jixoz – ko'zda tutildi.

6.1.27. "K1-1" oqava suv chiqish tizimida tiqinlarni tozalash uchun yechim – nazarda tutildi.

6.1.28. Jixozlar jadvali – o'zgartirildi.

Isitish tizimi va shamollatish ta'minoti.

6.1.29. Teplotexnik hisob – ishlab chiqildi.

6.1.30. Isitish tizimi GOST bo'yicha – loyihalandi.

6.1.31. Radiatorlar soni QMQ 2.04.05-97 ga muvofiq – o'zgartirildi.

6.1.32. Xonalarda shamollatish tizim yechimi hisob-kitob bo'yicha – bajarildi.

6.1.33. Tashqi isitish tarmog'i chizmalari (teplotrassa) – taqdim etildi.

Elektr qismi

- 6.1.34. Ishchi loyiha «O'zenergoinspeksiyasi» Namangan hududiy bo'limi bilan – kelishildi.
- 6.1.35. Qo'shimcha quvvat asosida 10 kV li "Gulbog'" tarmog'ini releli himoya hisobi – bajarildi.
- 6.1.36. Tashqi elektr ta'minoti uchun tushuntiruv yozuvi – bajarildi.
- 6.1.37. 10 kV li tarmoq chizmalari – taqdim etildi.
- 6.1.38. Hojatxona uchun elektr ta'minoti chizmasi – bajarildi.
- 6.1.39. Loyiyaning ichki ta'minoti qismida umumiy ko'rsatgichlarda rozetka va kommutatsion apparatlarning o'rnatish balandligi – o'zgartirildi.
- 6.1.40. Yong'in vaqtida ventilyatsiya tizimini avtomat o'chirish tizimi – ishlab chiqildi.
- 6.1.41. Past kuchlanishli priborlarni elektr ta'minoti – ko'zda tutildi.
- 6.1.42. Xonalarning yoritilganlik va shitlarning hisobiy quvvatlari – o'zgartirildi.

6.2. Qurilish bahosini hisoblash.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 3891617,805 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 74251,551 ming so'mga kamaytirilib, **3817366,254 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	2715675,917 ming so'm.
Asbob-uskunalar:	499870,017 ming so'm.
QQS:	482331,890 ming so'm.
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	119488,430 ming so'm.

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchiligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, Namangan viloyati Mingbuloq tumani "Uyurchi Damko'l" MFYda 57-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida 75 o'rinli bino qurish ishchi loyiha kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi

Ekspertlar: N.Abdunazarov, I.Karimov, D.Tursunov

Bosh mutaxassis: MAXKAMOV TOXIR MARIFJONOVICH